

## O'zbekiston Respublikasi Xalq Demokratik Partiyasi Faoliyati Tarixi

*Abdullayeva Nasiba Arabovna<sup>1</sup>, Tilaboldiyeva Marg'uba Qo'l dash qizi<sup>2</sup>*

**Annotatsiya:** Respublikamiz Xalq demokratik partiyasining maqsad hamda vazifalari haqida so'z ketadi.

**Kalit so'zlar:** xalq, demokratiya, fraksiya, funksiya, deputat, qurultoy, dastur, saylov, markaziy kengash, referendum.

«Xalq demokratiyasi - taraqqiyot asosi!» O'zbekiston xalq demokratik partiyasi (O'zbekiston XDP) - O'zbekistondagi siyosiy partiyalardan biri. 1991-yil 14-sentyabrda faollar guruhi o'tish davrida manzilli ijtimoiy yordam va ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan aholi qatlamlari va guruhlari manfaatlarini ifoda etuvchi va ilgari suruvchi partiyani tashkil etish tashabbusi bilan chiqdi. 1991-yil 1-noyabrda – O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining I Ta'sis qurultoyi bo'lib o'tdi. Qurultoy partiya Ustavi va Dasturini qabul qildi, uning ijtimoiy-siyosiy faoliyatining ustuvor yo'naliishlarini belgiladi. Yangi tashkil topgan partiya Markaziy Kengashining birinchi kotibi etib Mahmudjon Mo'minovich Rasulov saylandi. Qurultoy ishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov ishtirot etdi va so'zga chiqdi.

Haftasiga uch marta o'zbek tilida chop etiladigan «O'zbekiston ovozi» gazetasi partianing markaziy bosma nashriga aylandi. 1991-yil dekabr oyida partiya O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olindi. Dekabr oxiriga kelib partiyani tashkiliy rasmiylashtirish va uning hududi tashkilotlarini Qoraqalpog'iston Respublikasi, barcha viloyatlar va Toshkent shahrida hamda mamlakatdagi barcha tuman va shaharlarda tashkil etish jarayoni yakunlandi. 1992-yil 1-yanvarda ushbu sana holatiga ko'ra, partiya safida 347,7 ming a'zo bo'lib, ular 11,3 ming boshlang'ich tashkilotlariga birlashdi. 1992-yil 5-martda - partianing rus tilidagi haftalik «Golos Uzbekistana» gazetasi chop etila boshlandi.

1994-yil 1-noyabrda - O'zbekiston XDPning II qurultoyi bo'lib o'tdi. Qurultoy O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining 1994-yil dekabr oyida mustaqil O'zbekistonda Oliy Majlis va xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlariga ilk o'tkazilgan ko'p partiyaviylik saylovida ishtirot etishi to'g'risida qaror qabul qildi. Qurultoya partianing saylovoldi platformasi qabul qilindi. Partiya Ustaviga O'zbekiston XDP deputatlik birlashmalarini shakllantirish va vakillik davlat hokimiyyati organlaridagi faoliyati tartibini belgilovchi o'zgartirishlar kiritildi. Abdulhofiz Marahimovich Jalolov partiya Markaziy Kengashi birinchi kotibi etib saylandi.

1995-yil yanvarda saylov yakunlari bo'yicha ilk bor O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kenesida, barcha xalq deputatlari viloyat, Toshkent shahar, barcha tuman va shaharlardan Kengashlarida partiya guruhlari tashkil etildi.

1999-yil 8-oktyabrda O'zbekiston XDP III qurultoyi bo'lib o'tdi. Qurultoy mustaqil O'zbekistonni isloh qilish va demokratik modernizatsiyalash borasidagi navbatdagi bosqichi vazifalarini e'tiborga olgan holda partianing ustuvorliklarini aniqlashtiruvchi yangi Dasturni qabul qildi. 2000-yil yanvar va 1999-

<sup>1</sup> Doktori (PhD), dotsent v/b, Andijon davlat pedagogika institut, Ijtimoiy fanlar kafedrasи tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlar

<sup>2</sup> Andijon davlat pedagogika instituti magistri



yildagi davlat hokimiyati vakillik organlariga ikkinchi chaqiriq umumxalq saylovi yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi hamda Xalq deputatlari barcha viloyatlar, Toshkent shahar va tuman (shahar) Kengashlarida O'zbekiston XDP partiya guruhlari tashkil etildi. 2001-yil dekabrda partiya O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini ikki palatali parlamentga aylantirish masalalari bo'yicha referendum o'tkazilishini qo'llab-quvvatlab chiqdi.

2002-2003 yillarda partianing parlamentdagi fraksiyasi 2002-yil 27-yanvardagi referendum yakunlari bo'yicha ikki palatali parlamentni shakllantirishga qaratilgan qonun loyihamalarini muhokama etish va qabul qilishda faol ishtirok etgan.

2003-yil 15-martda O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi Markaziy Kengashining navbatdagi V plenumida parlament sohasida avj olayotgan islohotlar munosabati bilan partianing ustuvor vazifalari belgilandi.

2003-yil 27-dekabrda O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi Markaziy Kengashining VI plenumida Asliddin Ashurbayevich Rustamov MK birinchi kotibi etib saylandi.

2004-yil 6-noyabrdan O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining navbatdagi IV qurultoyi bo'lib o'tdi. Qurultoy partiya markaziy organlari yangi tarkibini shakllantirdi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga deputatlilikka nomzodlar ko'rsatdi va O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlariga 2004-yil saylovida Saylovoldi dasturini tasdiqladi.

Shuningdek, partiya Ustavi yangi tahrirda qabul qilindi.

2005-yil yanvarda O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi yangi ikki palatali parlamentga ilk bor bo'lib o'tgan ko'ppartiyaviylik saylovi yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasida son jihatdan ikkinchi fraksiyani shakllantirdi. Shuningdek, partiya o'z o'mini kuchaytirib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kenesi, barcha xalq deputatlari viloyat, Toshkent shahar va tuman (shahar) Kengashlarida O'zbekiston XDP guruhlari tashkil etildi.

2005-yil 17-fevralda O'zbekiston XDP fraksiyasi Qonunchilik palatasidagi O'zLiDeP, «Fidokorlar» XDP va «Adolat» SDP fraksiyalarining Demokratik blokka birlashishiga, ya'ni parlamentdagi ko'pchilikni tashkiliy rasmiylashtirilishiga javoban o'z zimmasiga parlamentdagi ozchilik muholifat rolini olishi haqida e'lon qildi.

2005-yil 2-iyulda O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining V qurultoyi bo'lib o'tdi, u barcha sohalarda partiyani chuqur isloq qilish bo'yicha maqsadli ko'rsatmalarni ishlab chiqdi. Qurultoy xalq demokratiyasini umume'tirof etilgan tamoyillari - ijtimoiy tenglik va ijtimoiy birdamlikka asoslangan partianing yangi Dasturini qabul qildi.

Qurultoyda partianing «butun xalq» partiyasi bo'lishga oid xomxayolligidan ozod bo'lish sari amaliy qadamlar qilindi. Partiya tashkil topgandan keyin ilk bor uning Dasturida doimiy elektorati - ijtimoiy ko'makka muhtoj va partianing siyosiy faoliyati uchun manfaatlarini belgilovchi hisoblangan aholi qatlamlari aniq belgilandi.

2005-yil 9iyulda O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi Markaziy Kengashining III plenumida partiya dasturiy maqsadlarini amalga oshirish bo'yicha 2005-2009-yillarga mo'ljallangan umumpartiyaviy Harakat dasturi qabul qilindi. Plenumda Latif Yoqubovich G'ulomov O'zbekiston XDP Markaziy Kengashi raisi etib saylandi.

2005-yil 30-noyabrdan partianing Qoraqalpog'iston respublika, viloyatlar va Toshkent shahar kengashlari huzurida Xalq demokratik partiyasi Jamoatchilik qabulxonalarini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi.

2005-yil dekabr va 2006-yil yanvar oylarida partianing «Faol ayollar» va «Istiqlol» yoshlar qanotlari tashkil etildi va ularning jamoat kengashlari shakllantirildi.

2006-yil yanvar-avgust oylarida partiya a'zolarini qayta ro'yxatdan o'tkazdi. Uning amaliy natijasi sifatida O'zbekiston XDPning turli sabablarga ko'ra partiya tashkilotlari ishida va partiya hayotida



ishtirok etmagan, o‘zining ustav vazifalarini bajarmagan, partiya mafkurasini qo‘llab-quvvatlamagan yoki o‘z tashkilotlari bilan aloqani yo‘qotgan passiv a’zolardan holi bo‘lganini ta’kidlash mumkin.

2006-yil 7-10-sentyabrda O‘zbekiston XDP delegatsiyasi Koreya Respublikasi poytaxti Seul shahrida bo‘lib o‘tgan Osiyo mamlakatlari siyosiy partiyalari Xalqaro konferensiyasining IV Bosh Assambleyasi ishida qatnashdi.

2007-yil 3-oktyabrda partiya Markaziy Kengashining VII plenumi bo‘lib o‘tdi, unda O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasining 2007-yil dekabrda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovidagi ishtiroki to‘g‘risida qaror qabul qilindi.

2007-yil 5-noyabrda O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasining VI qurultoyi bo‘lib o‘tdi, unda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod sifatida partiyadan Qonunchilik palatasidagi partiya fraksiyasi rahbari Asliddin Ashurbayevich Rustamov ko‘rsatildi.

2008-yil 3-dekabrda partiya tizimida ilk bor yosh siyosatchilar tanlovi «**Yosh siyosatchi-2008**» o‘tkazildi, u o‘sha vaqtidan boshlab har yili 4 ta bosqichda — boshlang‘ich partiya tashkilotlari darajasidan boshlab o‘tkaziladi.

2009-yil 10-noyabrda O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasining VII qurultoyi bo‘lib o‘tdi. Qurultoy partiya markaziy organlari yangi tarkibini shakllantirdi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlarni ko‘rsatdi va Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlariga 2009-yildagi saylovda O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi Saylovoldi dasturini tasdiqladi.

2010-yil 11-martda O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi Markaziy Kengashining II plenumi bo‘lib o‘tdi, unda partiya 2009-yildagi saylovda ilgari surgan dasturiy maqsadlarni amalga oshirish bo‘yicha 2010-2014 yillarga mo‘ljallangan umumpartiyaviy amaliy harakatlar Dasturi qabul qilindi.

2010-yil 19-noyabrda O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi Markaziy Kengashining III plenumi bo‘lib o‘tdi, unda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ilgari surilgan “**Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiysi**”ni amalga oshirishda partyaning amaliy ishtirokiga doir vazifalar belgilandi. Plenum partyaning 2010-2014 yillarga mo‘ljallangan amaliy harakatlar Dasturiga tegishli qo‘sishimcha va aniqliklarni kiritdi.

2013-yil 24-aprelda O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi Markaziy Kengashi VIII plenumida Xotamjon Abdurahmonovich Ketmonov Markaziy Kengash raisi etib saylandi.

2014-yil 5-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga 2014-yil saylovida Xalq demokratik partiyasi ishtiroki munosabati bilan chaqirilgan O‘zbekiston XDP VIII qurultoyida partiya markaziy organlari amaldagi tarkibi shakllantirildi. Qurultoy 2014-yildagi saylovda O‘zbekiston XDPning Saylovoldi dasturini tasdiqladi va u 2019-yilgacha bo‘lgan davrda partyaning amaldagi dasturiy hujjati hisoblanadi. 2005-yilda qabul qilingan partiya Dasturiga nisbatan ushbu Dasturda partyaning dasturiy ustuvorliklari va maqsadlari uning doimiy elektorati bazaviy manfaatlaridan kelib chiqib aniqlashtirilgan, bu esa partyaning siyosiy o‘ziga xosligini mustahkamlashga ko‘maklashdi.

2015-yil yanvarda 2014-yil saylovi yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasining Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyasi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kenesi, xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar va barcha tuman va shahar Kengashlarida partiya guruhlarining yangi tarkibi shakllantirildi va u deputatlik korpusida quyidagi vakillikka ega:

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi 27 deputat;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kenesi, xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar Kengashlari 210 deputat;
- xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari 1646 deputat.



2015-yil 9-fevralda O‘zbekiston XDP IX qurultoyi O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasining O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovidagi ishtiroki munosabati bilan mahalliy partiya tashkilotlarining tashkiliy va siyosiy vazifalari to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqdi. Qurultoy, shuningdek, partiya Markaziy Kengashi raisi Xotamjon Abdurahmonovich Ketmonovni O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod etib ko‘rsatish haqida qaror qabul qildi. Qurultoyning tegishli qarori bilan uning Saylovoldi dasturi ma’qullandi.

2015-yil 16-martda O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasining O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi fraksiyasining majlisi bo‘lib o‘tdi. «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi to‘g‘risida»gi Konstitutsiyaviy qonunning 25-1-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasining parlamentdagi fraksiysi o‘zini O‘zLiDeP va O‘zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi fraksiyalarini birlashtiruvchi va parlament ko‘pchilagini tashkil etuvchi Demokratik kuchlar blokiga nisbatan muholifat deb e‘lon qilish haqida qaror qabul qildi.

Ushbu qaror shu bilan izohlandiki, O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi hukumatning Harakatlar dasturi bilan ko‘zda tutilgan qator muhim iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarni hal etish yo‘lida saylovoldi dasturida aks etgan o‘z nuqtai nazariga ega.

2015-yil 9-aprelda O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi Markaziy Kengashi III plenumi demokratik islohotlarning bugungi bosqichida O‘zXDP tashkilotlari oldida turgan dolzarb vazifalar haqidagi masalani ko‘rib chiqib, partyaning 2015-2019 yillarga mo‘ljallangan saylovoldi dasturiy maqsadlarini amalga oshirish bo‘yicha Harakatlar dasturini qabul qildi.

2016-yil 14-oktyabrda O‘zbekiston XDP X qurultoyi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi ishtiroki munosabati bilan mahalliy partiya tashkilotlarining tashkiliy va siyosiy vazifalari to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqdi. Qurultoy, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga partiya Markaziy Kengashi raisi Xotamjon Abdurahmonovich Ketmonovni O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasidan nomzod etib ko‘rsatish haqida qaror qabul qildi. Qurultoyning tegishli qarori bilan uning Saylovoldi dasturi ma’qullandi. Qurultoy partiya Ustaviga ham muayyan o‘zgarishlar kiritdi.

2017-yil 31-martda O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi Markaziy Kengashining VII plenumi Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yilda 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari Harakatlar strategiyasini amalga oshirilishi bo‘yicha Davlat dasturi ijrosini ta‘minlash yuzasidan O‘zbekiston XDP tashkilotlari va deputatlik birlashmalari oldida turgan muhim vazifalarni ko‘rib chiqdi va partyaning 2015-2019-yillarga mo‘ljallangan Harakat dasturiga tegishli o‘zgartish va qo‘sishchalar kiritdi. 2019-yil 28-oktabrda O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi XI Qurultoyida qabul qilingan. O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi dasturiy maqsadlarini, avvalo, O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini asrash va mustahkamlash, Vatan ravnaqini ta‘minlash, mamlakatda ijtimoiy barqarorlik, fuqarolar va millatlararo hamjihatlik, har bir oila hamda butun xalq farovonligiga erishish kabi umummilliy manfaatlardan kelib chiqib belgilaydi.

O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasining bosh maqsadi aholi turmush darajasi yuqori bo‘lgan rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga qo‘shilish, jahon hamjamiatida munosib o‘rin egallash maqsadi ushbu manfaatlarga to‘liq mos keladi.

2021-yil 1-iyul holatiga ko‘ra, partiya a‘zolarining umumiy soni 520 ming kishidan ziyodni tashkil etadi. Partiya a‘zolarining 49 foizi ayollar, 51 foizga yaqini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlardir. Partiya ko‘p millatli tarkibga ega va elat vakillarini birlashtiradi.

Partiya tuzilishiga ko‘ra, 1 ta markaziy, 14 ta hududiy – Qoraqalpog‘iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahar hamda 22 shahar va 179 tuman tashkilotlari, shuningdek, partiya a‘zolarini ish joyi va yashash joyi bo‘yicha birlashtirgan 10 mingdan ziyod boshlang‘ich tashkilotlari mavjud.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, O‘zbekistonda siyosiy tizimi zamонави siyosiy munosabatlar shart-sharoitlari va omillariga moslashish hamda uyg‘unlashish sifatlariga ega bo‘lib bormoqda. Siyosiy partiyalarning islohatlar jarayonidagi jamiyatni yangilash va modernizasiya qilish, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishdagi roli va ahamiyati kuchaytirish, ijro hokimiyati ustidan



jamoatchilik, saylab qo'yiladigan hamda vakolatli organlar nazoratini kuchaytirish, taraqqiy topgan demokratik davlatlar tajribasi asosida yurtimizda haqiqiy ko'ppartiyavyilik muhitini qaror toptirishga qaratilgan hayotiy zarur huquqiy qoidalari o'z aksini topdi. Bularning barchasi siyosiy partiyalarning keng ko'lamda ijtimoiy-siyosiy faoliyat yuritishini ta'minlaydigan mustahkam qonunchilik bazasi yaratilishiga va ularning jamiyatimizdagi o'rni va nufuzi va mavqeini, vakolatlarini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda O'zbekiston Ekologik harakati vakillari bilan videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzasi 13.07.2017.
2. "O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi" O'zME. X-harfi Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
3. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent: O'zbekiston, 2000.
4. Karimov I.A. Ozad va obod Vatan, yerkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz.
5. XDP.uz.
6. Мадумаров, Т., & Ғуломжонов, О. (2024). ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА УСТУВОР ВАЗИФАЛАР ВА ЎҚУВЧИ-ЁШЛАРНИ ВАТАНПАРVARЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШ. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 4(2), 48-51.
7. Kozimbekovna, D. G. (2024). PSYCHOLOGICAL INTERPRETATION OF TEACHER'S SOCIAL HEALTH CHARACTERISTICS. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI, 4(2), 76-80.

